

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umaroglu

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросьянц Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmuratovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O‘tkirovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O‘ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Bатыралиевна ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O‘LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE‘RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA‘MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O‘ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Barno Abdusattarovna Mirsharipova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika

oliy maktabi tayanch doktoranti

minyo1691@gmail.com

PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734085>

ANNOTATSIYA

Maqola zamonaviy koreys yozuvchisi Pak Vanso qalamiga mansub ilk hikoyalarining Li San Yun, ijodining keyingi davrida yaratilgan hikoyalarining Tatyana Akimova tomonidan rus tiliga o'girilgan tarjimalari masalasiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada Rossiya va Koreya o'rtasidagi ilk madaniy aloqalar, rus tiliga tarjima qilingan asarlar haqida ma'lumot berib o'tilgan. Maqolada koreys tanqidchilari tomonidan adiba ijodiga bildirilgan fikr-mulohazalar yoritilgan. Bu yozuvchining nafaqat koreys, balki rus kitobxonlari e'tiborini tortgani sabablarini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, badiiy tarjima, hikoya, "Koreana" jurnali, Koreya urushi, 19-aprel inqilobi, 16-may harbiylar davlat to'ntarishi, 1970-1980-yillar sanoatlashtirish va urbanizatsiya davri

Барно Абдусаттаровна Миршарипова

Докторант Ташкентского государственного университета востоковедения

Высшая школа переводоведения, языкознания и международной журналистики

e-mail: minyo1691@gmail.com

О ПЕРЕВОДАХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ПАК ВАНСО НА РУССКИЙ ЯЗЫК

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена вопросу переводов на русский язык: ранних рассказов современного корейского писателя Пак Вансо, выполненных Ли Сан Юн, а также рассказов более позднего периода, переведённых Татьяной Акимовой. Кроме того, в статье приводятся сведения о первых культурных контактах между Россией и Кореей и об произведениях, переведённых на русский язык. Также освещаются мнения и оценки корейских критиков о творчестве писательницы. Всё это помогает прояснить причины, по которым данная автор привлекла внимание не только корейского, но и русского читателя.

Ключевые слова: литература, художественный перевод, рассказ, журнал «Koreana», Корейская война, Революция 19 апреля, военный переворот 16 мая, период индустриализации и урбанизации 1970–1980-х годов

Barno Abdusattarovna MirsharipovaPhD Candidate, Tashkent State University of Oriental Studies
Graduate School of Translation Studies, Linguistics and International Journalism
e-mail: minyo1691@gmail.com**TRANSLATIONS OF PAK WAN-SO'S WORKS INTO RUSSIAN****ANNOTATION**

The article is devoted to the issue of Russian translations of the early short stories by the contemporary Korean writer Pak Vanso done by Li San Yun, as well as the later-period stories translated by Tatyana Akimova. The article also provides information about the earliest cultural contacts between Russia and Korea and about works translated into Russian. It presents the views and assessments of Korean critics regarding the writer's oeuvre. All of this helps clarify why this author has attracted the attention of not only Korean but also Russian readers.

Keywords: literature, literary translation, story, Koreana magazine, Korean War, April 19 Revolution, May 16 military coup, 1970s-1980s industrialization and urbanization period

XX asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab koreys adabiyotini o'rganish Koreyaning o'zida siyosiy darajaga ko'tarildi. Xalqaro almashinuv bo'yicha tashkil etilgan Koreya fondi madaniy qadriyatlar masalasi, jumladan, adabiy jarayonlardagi yangiliklar, tarjimalar, koreys adabiyoti bo'yicha tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qarata boshladi. Zero, "...adabiyotlararo va madaniyatlararo hamjihatlik munosabatlarini o'rnatish hamda mustahkamlash – badiiy tarjima va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalari oldidagi eng asosiy vazifadir". Mashhur adiblar ijodi hamda ularning sara asarlarini, boshqa tillar, xususan, rus tiliga tarjima qilish yangi impuls oldi. Bunga yana 1990-yillardan boshlab Janubiy Koreya hamda Rossiya Federatsiyasi o'rtasida qayta tiklangan adabiy ko'prik sabab bo'ldi.

Tarixdan ma'lumki, 1990-yildan avval ham har ikki davlat o'rtasida madaniy, ma'rifiy hamda iqtisodiy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Mana shu o'rnatilgan madaniy aloqalar natijasi o'laroq, XX asrning ikkinchi yarmida sobiq sovet va rus koreysshunos olimlari tomonidan mumtoz, an'anaviy, xususan, XIX asrgacha bo'lgan koreys adabiyoti namunalari rus tiliga jadallik bilan tarjima qilindi. Rossiya Federatsiyasi FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limi xodimlari M.I.Nikitina, A.F. Trotsevichlar 1960-yillari birinchilar qatorida yozma adabiy yodgorliklarni nashrga tayyorladilar. Trotsevich A.F. Sankt-Peterburg universiteti Sharqshunoslik fakultetida 1952-2002 yillar davomida o'qigan ma'ruzalari asosida yaratgan o'quv qo'llanmaga o'rta asr koreys adabiyoti namunalaridan tarjimalar ilova qildi.

O'rta asrlarda yaratilgan hamda rus tiliga tarjima qilingan qissalarda ko'tarilgan ijtimoiy masalalar keyingi davr qator tadqiqot ishlari uchun ilmiy manba sifatida xizmat ko'rsatdi. Mumtoz davr koreys adabiy jarayonlarida roman janrining yaratilishi muhim ahamiyatga molikdir. Davlat arbobi, olim, yozuvchi Kim Manjun qalamiga mansub birinchi roman ham V. I. Artemyeva hamda G. Grachkovalar tomonidan rus tiliga tarjima qilindi.

Choson sulolasi davriga xos hodisa koreys alifbosi yaratilishi bilan bog'liq vujudga kelgan ona tilidagi she'riyatga bo'lgan qiziqish tarjimalarda ham o'z aksini topdi. Ilk bor Anna Axmatova tomonidan rus tiliga so'zma-so'z tarzida tarjima qilingan sijo she'riyati bugungi kunda ham kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi.

XX asrning birinchi yarmi koreys adabiy jarayonlarida jadal o'zgaruvchanlik, voqealarning mavhumligi, qaysidir jihatlarining zaifligi ko'zga tashlanadi, bu davrni koreys adabiyotida o'tish davri deyish o'rinli. 1910-1945 yillar yapon istilosi davrida koreys adabiyotida nasr va nazm, yozuvchi va shoirlar ijodiga ko'proq tashqi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bu davrga kelib Koreya va Rossiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar ancha susaygan bo'lsa-da, rus adabiyotidan ta'sirlangan, she'rlari kitobxon va tanqidchilar e'tiboriga tushgan Kim Sovol (asli ismi Kim Jonsik) ijodi rus tiliga tarjima qilindi.

1990-yili Janubiy Koreya hamda Rossiya o'rtasida o'rnatilgan diplomatik aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi hamda 2020-yili madaniy hamkorlikning 30 yilligi keng nishonlandi. Ko'p qirrali hamkorlik natijalari o'laroq, zamonaviy koreys adabiyoti namunalarini rus tiliga tarjima qilish ishlari yo'lga qo'yildi. Rossiyaning turli hududlarida mashhur koreys yozuvchilari hamda yosh ijodkorlar bilan turli adabiy kechalar, madaniyat haftalikasi uyushtirildi, kitob ko'rgazmalari tashkil etildi. Bugungi kunda esa zamonaviy koreys adabiyoti namunalarini rus tiliga tarjima qilish bo'yicha mahorat darslari o'tkazilmoqda. Dastlab rus yoki koreys tilini mukammal biladigan tarjimonlar yetishmasligi sababli, tarjimalar hamkorlikda amalga oshirildi: "1990 yildan boshlangan diplomatik aloqalar rivoji natijasida koreys adabiyoti bo'yicha 100ga yaqin kitob rus tiliga tarjima qilindi". Bu rus kitobxonining zamonaviy koreys adabiyotiga bo'lgan qiziqishi ortganidan dalolat beradi.

Koreya va Rossiya o'rtasidagi madaniy aloqalarning samarasi o'laroq, 1994-yildan boshlab Koreyada "Koreana" jurnali davomiy chop etilmoqda. Koreya Respublikasining turli adabiy jurnallarida chop etilgan, kitobxon va tanqidchilar e'tiborini qozongan qator yozuvchilarning hikoyalari rus tiliga tarjima qilinmoqda. Jurnalning 2018-yilgi soni mashhur yozuvchi Pak Vansoning "O'tmishdan xotiralar" hikoyasi nomi ostida chop ettirildi. Jurnalga adibaning "O'tmishdan xotiralar" hamda "Aeroportdagi uchrashuv" hikoyalarining Tatyana Akimova tomonidan amalga oshirilgan rus tiliga tarjimasi kiritildi.

"Aeroportdagi uchrashuv" hikoyasi 1960-yillarning oxirida Koreyada boshlangan sanoatlashtirish, urbanizatsiya va modernizatsiya taraqqiyot siyosatining oddiy aholi turmush tarziga ko'rsatgan salbiy oqibatlariga bag'ishlangan. Jadallik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatda ishsizlar soni keskin oshib ketdi. Oddiy aholi o'rtasida boshqa mamlakat, jumladan, Saudiya Arabistoniga borib ishlab keluvchilar soni ortdi. Muhojirlikka ketayotgan ishchilarning aksariyati oilali bo'lib, ularga oila a'zolarini o'zlari bilan birga olib ketish ta'qiqlangan. Moddiy ehtiyoj ko'plab oilali erkaklarning muhojirlikka ketishiga sabab bo'ldi. Bu yozuvchi hikoya zamiriga joylashtirgan ijtimoiy masalalarning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqa millat vakillari bilan turmush qurgan koreys ayollari taqdiriga ham to'xtaladi.

Muallif "Aeroportdagi uchrashuv" hikoyasiga tanlab olgan farrosh ayol obrazida fuqarolar urushi davri oila boquvchisiga aylangan ayollarning qismatini yoritadi. Yozuvchi o'zi bir vaqtlar ishlagan amerikaliklar do'konida e'tibordan chetda, hech qachon shubha uyg'otmaydigan farroshlar obrazida ayol sadoqati haqida hikoya qiladi. Urush sabab, ayol o'zining yoshlik latofati haqida unutgan: ishlab topilgan mablag' oilani tebratishga arang yetadi. Shu sababli farroshlar sotuvchi ayollar bilan til birlashtirgan holda turli mahsulotlarni libos tagiga yashirib, tashqariga olib chiqib sotish bilan shug'ullanishgan. Bu bilan adiba tirikchilik tashvishi ayollar zimmasiga tushganini ta'kidlaydi. Hikoyadagi ayrim lavhalar "Tog' chindan ham o'sha yerda bo'lganmi?" romani syujetiga ham kiritilgan.

Pak Vanso "O'tmishdan xotiralar" hikoyasida oila qurish, ya'ni ijtimoiy hodisani badiiy hodisaga aylantiradi. Aslida muallif hikoyada o'zining ilk muhabbatini tasvirlagan. Hikoya ortida mazkur davrga kelib qizlarning an'anaviy urf-odatlar chegarasidan o'tganligi ochib berilgan. Mazkur hikoyadagi ayrim lavhalar "Tog' chindan ham o'sha yerda bo'lganmi?" romani syujetiga ham kiritilgan. Hikoya bosh qahramoni o'tmish xotiralarida o'zining "oilasi" va "muhabbat" haqidagi o'ylari bilan o'rtoqlashadi:

"O'smirlik davrida akamning otashin va sadoqatli muhabbatini kuzatganligimga qaramasdan erkak va ayol qanday sevisharkan degan masala men uchun mahkam qulflangan eshik orqasidagi qorong'ulikga yashirin narsadek ko'rindi. Erta beva qolgan ona qo'l ostida o'sib, onam bilan otamning o'zaro baxtli yashaganini ko'rmaganim, oldimda kimdir yoshimga mos kelmaydigan gap qilsa, yosh bola oldida bu nimasi, deya nafratlanishim onamning o'ziga xos iffatlilik ta'limi bois ham edi".

Pak Vanso 1931-yili Kyonggi provinsiyasining Pakchokkol qishlog'ida an'anaviy koreys oilasida tug'ildi. Bolaligi Yaponiya istilosi, yoshlik yillari esa Koreya urushi (1950-1953) davriga to'g'ri keldi. Peter H. Lee asosli ta'kidlaganidek: "Pak Vanso Yaponiya mustamlakachiligi, Koreya urushi, 19-aprel inqilobi, 16-may harbiylar davlat to'ntarishi, 1970-1980-yillarda sanoatlashtirish va urbanizatsiya avj olgan davrda yashadi". Darhaqiqat, 1960-yillar mamlakatda bo'lib o'tgan "Aprel

inqilobi”, iqtisodiyotini yuksaltirishga qaratilgan sanoatlashtirish, xalq turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan yangi siyosiy jarayonlar yozuvchi ilk ijodi mavzulariga aylandi.

Pak Vanso yashagan davr Koreya tarixida eng notinch davr bo‘ldi. Ona vatanining, qondoshlarining mafkuraviy bo‘linishi Pak Vanso ijodining asosiy mavzuiga aylandi. 1970-yili Yoson tona ayollar jurnalida chop etilgan ilk debyuti “Yalang‘och daraxt” romani bunga yorqin misol bo‘ladi.

XX asrning 70-yillarida ijod maydoniga kirib kelgan Pak Vanso harbiy boshqaruv davrida jamiyatdagi tazyiq sabab ochiq aytish mumkin bo‘lmagan mavzu va muammolarni avval hikoyalari, keyin romanlari zahiriga joylashtirdi. Sanoatlashtirish davrida nashr yuzini ko‘rgan hikoyalarda tasvirlangan voqealar, manzaralar, yaratgan ayol obrazlari taqdiri qaysidir jihatlari bilan o‘zbek xalqi hayotiga hamohangligi bilan e‘tiborni tortadi. Li San Yun tomonidan rus tiliga tarjima qilingan “Qora beva” (“Чёрная вдова”, “흑과부”), “Jannatmakon bolalari” (“Дети райской земли”, “낙토의 아이들”), “Jangda o‘ldirilgan kunlar anemon gullari,” (“Цветы анемона тех дней, когда убивали в боях”, “그 살벌했던 날의 할미꽃”) hikoyalari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Pak Vanso hikoya va romanlarida koreys ayolining urush, modernizatsiya va iqtisodiy islohotlar davridagi hayotini chuqur psixologik tahlil etadi. Tarjimalar bu asarlarning universalligi, ya‘ni insoniy qadriyatlar, oila, muhabbat, sadoqat va ijtimoiy adolat kabi mavzular har qanday madaniyat vakiliga yaqin ekanini ko‘rsatdi.

Li San Yun adibaning aynan 1970-yillarda yaratilgan sanoatlashtirish davrining xalq tafakkuriga ta‘siri masalalariga qaratilgan hikoyalarini rus tiliga tarjima qildi. Tarjimon bu hikoyalarni ilmiy tahlil doirasiga ham tortdi. Tarjima uchun tanlab olingan hikoyalarda yozuvchining umumbashariy muammolar, xususan, oila va jamiyatda ayol rolini ochib berishga qaratilgan qarashlari aks ettirilgan. Tarjimon hikoyadagi milliy ruhni rus kitobxoniga yaxshi yetkazib bera olgan.

Li San Yundan farqli ravishda rus tarjimoni Tatyana Akimova adibaning fuqarolar urushi davrini aks ettiruvchi, keyinchalik romanlariga kiritilgan hikoyalarini tarjima qildi. Tarjimon yozuvchi uslubi, tarjimada koreys tilining milliy xususiyatlarini saqlashga katta e‘tibor qaratgan. Tatyana Akimova hikoya tarjimalarida rus o‘quvchisiga koreys madaniy realiyalarini yetkazishda juda mohirona yondashgan. Natijada Pak Vanso asarlarining rus tiliga tarjimalari koreys adabiyotini xalqaro miqyosda targ‘ib etish, madaniyatlararo muloqotni kengaytirish va adabiyotlararo integratsiyani mustahkamlashga xizmat qildi.

Umuman olganda, Pak Vanso asarlarining rus tiliga tarjimalari koreys milliy adabiyotining xalqaro nufuzini oshirishda, o‘zaro madaniy aloqalarni boyitishda va ayol ijodkorlar nigohini jahon miqyosiga olib chiqishda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saidov A. “Qiyosiy adabiyotshunoslik” tushunchasining ta‘rifi, talqini va tasnifi haqida ayrim mulohazalar. Qiyosiy adabiyotshunoslik: o‘tmishi, buguni, istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. 2020. – B.
2. Верная Чхун Хян. Корейские классические повести XVII-XIX вв. – М.: Художественная литература, 1990. –381 с. История о верности Чхун Хян. Средневековые корейские повести. – М.: ИВЛ, 1960. – 684 с.
3. Дом из прошлого” рассказы современных корейских авторов. Сеул.:Искусства, 2018 . – 71 с .
4. Корейская классическая поэзия. /В переводе Анны Ахматовой. – М.:ХЛ, 1956. – 319 с.
5. Ким Мангжун. Облачный сон девяти. /Перевод Артемьевой В. И Грачкова Г. – М. – Л.: Гослитиздат, 1961. – 395 с.
6. Ким Соволь. Корейская поэзия XX века. – М.: “Первое марта”, 2003. – 175с.
7. Корейский стандарт. Рассказы современных корейских авторов. Пред. Ким Хёнтхэк / Пер. Т. Акимова. Корейский фонд международных обменов. – Сеул. 2019. – 369 с.

8. Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы (до XX в.): – Учебное пособие. СПб: Издательство СПбГУ. 2004.
9. Peter H. Lee. A History of Korean Literature. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – P.77.



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000